

Namangan viloyatida sog'liqni saqlash

2024- yil yakuni bo'yicha.


- I. Namangan viloyatidagi shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari
- II. Namangan viloyatidagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari
- III. Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar hamda o'rta tibbiyot xodimlari
- IV. Aholining kasallanish darajasi hamda shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar
- V. Sog'liqni saqlash bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Namangan viloyatidagi shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari

Shifoxona muassasasi – kechayu kunduz tibbiy yordam ko'rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va reabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.

Namangan viloyatidagi shifoxona muassasalari soni


(tegishli yil yakuni bo'yicha, birlik)



2024- yil yakuni bo'yicha Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining umumiy soni **200 taga** yetdi va 2023- yilga nisbatan **82 taga** ko'payib, **69,4 % ga** o'sishni tashkil etdi.

Shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni

(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming birlik)



2024- yil yakunida Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni **16,5 mingtaga** yetdi va 2023 yilga nisbatan **0,8 mingtaga** ko'payib, **5,1 % ga** o'sishni tashkil etdi.

Shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari
sonining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil yakuni bo'yicha, birlik)

	Shifoxona muassasalari soni		Bemor o'rinlari soni (ming birlik)	
	jami ¹⁾	jamiga nisbatan % dagi ulushi	jami ¹⁾	jamiga nisbatan % dagi ulushi
Namangan viloyati	200	100	16,5	100
Namangan sh.	41	3,1	4,9	4,6
tumanlar:				
Davlatobod	14	13,4	0,6	9,4
Yangi Namangan	10	6,8	0,4	5,4
Kosonsoy	21	3,6	1,2	3,8
Mingbuloq	6	6,9	0,5	7,8
Namangan	13	2,2	0,9	2,6
Norin	8	10,1	0,5	9,2
Pop	14	9,8	1,2	9,1
To'raqo'rg'on	8	4,9	1,2	5,6
Uychi	12	2,4	0,8	2,6
Uchqo'rg'on	7	7,4	0,8	9,6
Chortoq	21	12,4	1,6	10,4
Chust	13	4,2	1,1	4,8
Yangiqo'rg'on	12	12,1	1,0	14,7

2024- yil yakuni bo'yicha eng ko'p shifoxona muassasalari Namangan (**41 ta**), Kosonsoy (**21 ta**) hamda Chortoq tumanida (**21 ta**) joylashgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Mingbuloq (**44 ta**), Uchqo'rg'on (**7 ta**) va Norin tumanida (**8 ta**) qayd etilgan.

Shifoxona muassasalaridagi eng ko'p bemor o'rinlari Namangan shahri (**4,9 mingta**), Chortoq (**1,6 mingta**) va Kosonsoy (**1,2 mingta**) tumanlarida qayd etilgan bo'lib, boshqa hududlarga

¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.

nisbatan eng past ko'rsatkichlar Yangi Namangan (**0,4 mingta**), Norin (**0,5 mingta**) va Davlatobod (**0,6 mingta**) tumanlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Shifoxona muassasalari soni](#)

[Shifoxona muassasalari sonining hududlar kesimida taqsimlanishi](#)

[Shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni](#)


[10 000 aholiga to'g'ri keladigan bemor o'rinlari soni](#)

II. Namangan viloyatidagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari – aholining ushbu muassasalarga qatnashi yoki shifokorlarni uylarga tashrif buyurishi orqali aholiga davolash profilaktika yordamini ko'rsatuvchi muassasalardir (poliklinikalar, dispanserlar, shifoxonalarining poliklinika bo'limlari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, tibbiy sanitariya qismlar, ambulatoriyalar, qishloq (shahar) vrachlik punktlari, mustaqil vrachlik tibbiyot punktlari, ayollar maslahat xonalari va boshqalar).

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni

(tegishli yil yakuni bo'yicha, birlik)



■ *Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni (jami)*

2024- yil yakunida Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni **542 taga** yetdi va 2023- yilga nisbatan **21 taga** ko'payib, **4,0 % ga** o'sishni tashkil etdi.

2024- yil yakunida Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalaridagi Quvvati, bir smenada qatnovlar soni, **30,1 ming** taga yetdi va 2023- yilga nisbatan **3,8 ming** taga kamaygan.

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari sonining hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024- yil yakuni bo'yicha, birlik)

	Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni		Quvvati, bir smenada qatnovlar soni, ming birlik	
	jami ¹⁾	jamiga nisbatan % dagi ulushi	jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi
Namangan viloyati	542	100	31,0	100
Namangan sh.	101	18,6	8,3	26,7
tumanlar:				
Davlatobod	37	6,8	1,7	5,4
Yangi Namangan	29	5,4	1,1	3,5
Kosonsoy	35	6,5	1,8	5,8
Mingbuloq	26	4,8	1,2	3,9
Namangan	31	5,7	1,4	4,5
Norin	31	5,7	1,3	4,2
Pop	49	9,0	2,4	7,6
To'raqo'rg'on	35	6,5	2,0	6,5
Uychi	36	6,6	1,7	5,5
Uchqo'rg'on	27	5,0	2,1	6,8
Chortoq	32	5,9	2,3	7,3
Chust	46	8,5	2,1	6,8
Yangiqo'rg'on	27	5,0	1,7	5,5

2024- yil yakuni bo'yicha hududlar kesimida eng ko'p ambulatoriya-poliklinika muassasalari Namangan shahrida (**101ta**), Pop (**49 ta**) va Chust (**46 ta**) tumanlarida qayd etilgan bo'lib, eng past ko'rsatkichlar Yangi namangan (**29 ta**), Mingbuloq (**26 ta**) va Yangiqo'rg'on (**27 ta**) tumanlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni](#)


[Ambulatoriya-poliklinika muassasalari sonining hududlar kesimida taqsimlanishi](#)

¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.


III. Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar hamda o'rta tibbiyot xodimlari

Shifokorlarning umumiy soniga yil oxirida tibbiyot, sanitariya tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot muassasalari, tibbiyot ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash muassasalarida va boshqalarda ishlaydigan oliy tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan barcha shifokorlar kiradi.

O'rta tibbiyot xodimlarining umumiy soniga tibbiyot va sanitariya tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot muassasalari, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, bolalar uylari va boshqalarda ishlaydigan o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan barcha shaxslar (tish shifokorlaridan tashqari) kiradi.



2024- yil yakuniga ko'ra, Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar soni **6,2 ming kishini** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan o'zgarmagan . 2024- yil yakuniga qadar Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan shifokorlar umumiy sonidan ayollarning ulushi **40,3 % ni**, erkaklarning ulushi esa **59,7 % ni** tashkil etdi.



2024- yil yakunida Namangan viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni **27,7 ming kishini** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **2,6 ming kishiga**, ya'ni **8,5 % ga** kamaydi.

Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlar hamda o'rta tibbiyot
xodimlari sonining hududlar kesimida taqsimlanishi ¹⁾
(2024- yil yakuni bo'yicha, kishi)

	Shifokorlar soni, jami	jamiga nisbatan % dagi ulushi	ulardan:		O'rta tibbiyot xodimlari soni	jamiga nisbatan % dagi ulushi
			erkaklar	ayollar		
Namangan viloyati	6 192	100	59,7	40,3	27 685	100
Namangan sh.	2 604	42,1	62,1	37,9	11 349	41,0
tumanlar:						
Davlatobod	105	1,7	67,6	32,4	147	0,5
Yangi Namangan	73	1,2	80,8	19,2	88	0,3
Kosonsoy	430	6,9	63,7	36,3	1 615	5,8
Mingbuloq	268	4,3	63,1	36,9	1 175	4,2
Namangan	250	4,0	77,2	22,8	1 159	4,2
Norin	194	3,1	44,8	55,2	783	2,8
Pop	413	6,7	54,2	45,8	2 376	8,6
To'raqo'rg'on	323	5,2	63,2	36,8	1 824	6,6
Uychi	335	5,4	53,7	46,3	1 665	6,0
Uchqo'rg'on	283	4,6	37,1	62,9	1 352	4,9
Chortoq	260	4,2	56,2	43,8	1 069	3,9
Chust	413	6,7	59,8	40,2	2 243	8,1
Yangiqo'rg'on	241	3,9	51,0	49,0	840	3,0

2024- yil yakuni bo'yicha Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlarning eng ko'p soni Namangan shahri (**2,6 ming kishi**), Kosonsoy (**0,4 ming kishi**) va Pop (**0,4 ming kishi**) tumanlariga to'g'ri kelgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Yangi Namangan (**0,07 ming kishi**), Davlatobod (**0,1 ming kishi**) hamda Norin (**0,2 ming kishi**) tumanlarida kuzatilgan.


Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, Uchqo'rg'on (**62,9 %**) va Norin tumanida (**55,2 %**) shifokorlarning umumiy sonidan ayollar ulushi erkaklar ulushidan yuqori bo'lgan. Boshqa hududlarda esa erkak-shifokorlarning ulushi ko'proq bo'lgan. Ularning eng ko'p qismi Yangi Namangan (**80,8 %**) va Namangan tumanida (**77,2 %**) va Davlatobod (**67,6 %**) tumanida qayd etilgan.

2024- yil yakuniga ko'ra, eng ko'p o'rta tibbiyot xodimlari Chust (**2,3 ming kishi**), Pop (**2,4 ming kishi**) tumanlarida hamda Namangan shahrida (**11,3 ming kishi**) qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Yangi Namangan (**0,08 ming kishi**), Davlatobod (**0,1 ming kishi**) va Norin (**0,8 ming kishi**) tumanlarida kuzatilgan.

¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.

IV. Namangan viloyatida shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni

Namangan viloyatidagi shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni
(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming kishi)



2024- yil yakuni bo'yicha Namangan viloyatidagi shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni **707,5 ming kishini** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **145,4 ming kishiga**, ya'ni **25,8 % ga** ko'paydi.

Hududlarda aholining kasallanish darajasi hamda davolangan bemorlar soni
(2024- yil yakuni bo'yicha)

	Davolangan bemorlar soni jami ¹⁾ (ming kishi)	Davolangan bemorlar soni jamiga nisbatan % dagi ulushi
Namangan viloyati	707,5	100
Namangan sh.	239,5	33,9
tumanlar:		
Davlatobod	18,0	2,5
Yangi Namangan	7,3	1,0
Kosonsoy	48,8	6,9
Mingbuloq	18,1	2,6
Namangan	40,5	5,7
Norin	20,7	2,9
Pop	49,7	7,0
To'raqo'rg'on	40,3	5,7
Uychi	38,1	5,4
Uchqo'rg'on	32,0	4,5
Chortoq	62,7	8,9
Chust	50,1	7,1
Yangiqo'rg'on	41,8	5,9

2024- yil yakuniga ko'ra, Chortoq tumani (**62,7 ming kishi**), Namangan shahri (**239,5 ming kishi**) va Pop tumanida (**49,7 ming kishi**) davolangan bemorlarning eng ko'p qismi qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichlar Yangi Namangan (**7.3 ming kishi**), Davlatobod (**18,0 ming kishi**) va Mingbuloq (**18,1 ming kishi**) tumanlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni \(jami\)](#)

V. Sog'liqni saqlash bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sog'liqni saqlash statistikasi – sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishining miqdoriy xususiyatlarini (sog'liqni saqlash muassasalari tarmog'i, ularning holati va ta'minlanganligi, tibbiy xodimlar), aholining umumiy salomatlik holati va uning alohida kontingentlari miqdoriy xususiyatlari, tarkibi, kasallanish chastotasi va tarqalishini o'rganuvchi statistika tarmog'i hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash statistikasining asosiy vazifasi foydalanuvchilarga sog'liqni saqlashning holati va rivojlanishini tavsiflovchi ishonchli rasmiy statistika ma'lumotlarini o'z vaqtida taqdim etishdan iborat.

Sog'liqni saqlash statistikasi sog'liqni saqlash tarmoqlari, sog'liqni saqlash tashkilotlari xodimlari, bemorlarning kasalxonaga yotqizilishi, tibbiy yordam ko'rsatilishi, sog'liqni saqlash resurslari, aholining kasallanish, nogironligini qamrab oladi, hamda o'zaro bog'liq bo'lgan statistika kuzatuvlari va idoraviy ma'lumotlar tizimi bilan ifodalanadi, ularning har biri o'ziga xos mavzuga va statistika kuzatuv birliklarini shakllantirish xususiyatlariga ega.

Namangan viloyatida sog'liqni saqlash bo'yicha statistik ma'lumotlar har yili shakllantiriladi. Ushbu ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etilib, hisobot yili yakuni bo'yicha keltiriladi.

Jamlangan ma'lumotlardan sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaoror rivojlanish maqsadlari va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Sog'liqni saqlash statistikasi bo'yicha uslubiy nizom](#)
[Xalqaro kasalliklar tasnifining 10-tahriri \(XKT-10\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Aholi turmush darajasi va ijtimoiy soha
statistikasi bo'limi

Manzil: 160133, Namangan sh.,
N.Namongoniy ko'chasi, 14
El. manzil: info@namstat.uz
Tel.: 69-211-72-00 (5100)

